

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI**

UMAROV ULASH ABDUAZIZOVICH

**QISHLOQ XO‘JALIGIDA HISOB-KITOBLARNI FUQAROLIK-
HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi.
Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Doktorlik (DSs) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторский диссертации (DSc)
Content of the abstract of tnt doktoral (DSc) dissetation

Umarov Ulash Abduazizovich

Qishloq xo'jaligida hisob-kitoblarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish muammolari3

Умаров Улаш Абдуазизович

Проблемы гражданского-правового регулирования расчетов в сельском хозяйстве30

Umarov Ulash Abduazizovich

Problems of civil law regulation of settlements in agriculture63

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published work69

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI**

UMAROV ULASH ABDUAZIZOVICH

**QISHLOQ XO‘JALIGIDA HISOB-KITOBLARNI FUQAROLIK-
HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi.
Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2024.1.DSc/Yu283 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.sudyalarioliymaktabi.uz) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziyo.net) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Nasriyev Ilxom Ismailovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Imomov Nurillo Fayzullayevich
yuridik fanlar doktori, professor

Rashidov Kamil Kayumovich
yuridik fanlar doktori, professor

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD/37/27.02.2020.Yu.107/01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «27» dekabr kuni soat 10:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (+99855) 501-01-89, faks: (+99855) 501-01-89, e-mail: www.sudyalarioliymaktabi.uz@umail.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 32-24-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (+99855) 501-01-89.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «15» dekabr kuni tarqatildi.

(2024-yil «15» dekabrda 14-raqamli reestr bayonnomasi).

F.X. Otaxonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

M.P. Qalandarova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, yuridik fanlar nomzodi

Q.M. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (Fan doktorlik (DSc) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda rivojlanishning asosiy muammolaridan biri – oziq-ovqat xavfsizligi yetishmovchiligini ta'minlash va ularning sifat darajasini zamon talablariga moslashtirishdir. Uchinchi ming yillikning boshlanishi bilan qishloq xo'jaligi munosabatlarida hisob-kitoblarni amalga oshirish shakllari tubdan o'zgardi. Masalan, AQSH qishloq xo'jaligida hisob-kitobni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ikki turi – maqsadli (kafolatlangan) va garovli turi amal qilsa, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va hisob-kitob qilishga nisbatan subsidiyalar tizimi qo'llaniladi¹. Bu esa, xalqaro-huquqiy munosabatlarda hisob-kitoblarni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini bir-biriga moslashtirish zaruriyatining kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Dunyoda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar va tayyorlovchilar o'rtasidagi hisob-kitoblarni ta'minlashga qaratilgan shartnomaviy-huquqiy mexanizmlar, oldindan to'lov, avans, kafolatli to'lov, eskrou va shu kabi boshqa zamonaviy hisob-kitob shakllarini qo'llashning muammolarini fuqarolik huquqi nuqtayi nazaridan kompleks tadqiq etish, qishloq xo'jaligida naqd pulsiz hisob-kitoblarni qo'llash asoslari va tartibi, qishloq xo'jaligida elektron to'lovlarni rivojlantirish bosqichlari, xususiyatlari va tartibga soluvchi mexanizmlarni takomillashtirishning ilmiy-nazariy va amaliy yechimlarini topishga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Respublikamizda qishloq xo'jaligida hisob-kitoblarga doir keng qamrovli dasturiy tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashning asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilangan². Amalga oshirilayotgan keng qamrovli chora-tadbirlarga qaramasdan, hisob-kitoblarga oid qonunchilikda, shartnomalarda zaruriy shartlarning talab darajasida aniq belgilanmaganligi oqibatida ularning taraflar tomonidan bajarilmasligiga yoki huquqbuzarliklarga sabab bo'lmoqda, ba'zi hollarda hisob-kitoblarga taalluqli huquqiy normalarni qo'llash jarayonida ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bundan tashqari, hisob-kitoblarni tartibga soluvchi fuqarolik qonunchiligi normalari xalqaro hisob-kitoblarni tartibga soluvchi normalarga moslashtirilmaganligi holatlariga kompleks baho berilmagan. Bu esa, respublikamiz qishloq xo'jaligida hisob-kitoblarni huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995, 1996), "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi (1998), "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi (2004), "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi

¹www.worldbank.org/curated/ar/684421468035950081/pdf/476560WP0RUSSI00Box338858B00PUBLIC0.pdf

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

(2012), “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi (2019), “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi (2019), “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi (2019) qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son, 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–158-son, 2019-yil 23-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF–2853-son, 2023-yil 16-yanvardagi “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF–11-son farmonlari va sohaga oid boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan ustuvor yo‘nalish va vazifalar amalga oshirilishida ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy-tadqiqotlar sharhi¹.

Qishloq xo‘jaligida hisob-kitoblarni fuqarolik huquqiy tartibga solish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida, jumladan University of London (Buyuk Britaniya), Nottingham Trent University (Buyuk Britaniya), University of Kent (Buyuk Britaniya), Autonomous University of Barcelona (Ispaniya), University of Bremen (Germaniya), University of Allahabad (Hindiston), University of Miscolc (Vengriya), Center for Economics Research and Graduate Education Charles University Prague (Chexiya), University of Adelaide (Avstraliya), University of Strasbourg (Fransiya), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya), Sankt-Peterburg davlat universitetida (Rossiya) olib borilmoqda.

Xorijiy mamlakatlarning huquqiy doktrinasida hisob-kitoblar bilan bog‘liq masalalar F.Manning “The legal aspect of money with special reference to comparative private and public international law” (“Qiyosiy xalqaro-xususiy va ommaviy huquqda alohida e‘tibor bergan holda pulning huquqiy jihati”), A.Nussbaumning “Money in the law” (“Qonundagi moliya”), R.Bxalning “Towards a Payments System Law for Developing and Transition Economies” (“Rivojlanish va o‘tish davrida iqtisodiyot uchun qonuniy to‘lov tizimi”), M.Megraxning “Law of bankers commercial credits” (“Bankirlar tijorat krediti to‘g‘risida qonun”) kabi ilmiy tadqiqot ishlarida yoritganlar.

Hisob-kitoblarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bilan bog‘liq masalarga oid qayd etilgan xorijiy ilmiy tadqiqotlarda AQSHning monetar va fiskal siyosati, shuningdek chet mamlakatlarning proteksionizm yo‘nalishidagi chora-

¹ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi www.london.ac.uk, www.ntu.ac.uk, www.kent.ac.uk, www.uab.cat, www.uni-bremen.de, www.allduniv.ac.in, www.uni-miskolc.hu, www.cerge-ei.cz, www.adelaide.edu.au, www.unistra.fr, www.msu.ru, www.spbu.ru va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan.

tadbirlari (yoki bunday tadbirlarning yoʻqligi), qishloq xoʻjalik mahsulotlarini sotishga bevosita taʼsir etish, davlat monetar va fiskal siyosatining samarasi, fermerlar olgan ssudalarning qiymati va hokazolar tahlil etilgan. Hisob-kitoblarga oid yuqorida qayd etilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, qishloq xoʻjalik subyektlarining xalqaro hisob-kitob va kreditga oid munosabatlarda ishtirok etishi obyektiv zaruriyat ekanidan kelib chiqib, bu sohada xususiy sektorni rivojlantirish hamda xalqaro bozorga integratsiyalashtirish uchun agrar sohaga xalqaro kreditni jalb qilishda taʼminot masalasi asosiy muammolardan biri ekanini inobatga olib, Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligiga xalqaro kreditni jalb qilishning huquqiy asoslarini Xalqaro valyuta fondi (XVF) tamoyillari va Jahon banki qoidalari asosida takomillashtirish lozim.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Milliy huquqshunoslikda hisob-kitoblarni huquqiy tartibga solish masalalari asosan shartnoma majburiyatlariga muvofiq tadqiq etilgan. Oʻzbekistonda qishloq xoʻjaligi sohasidagi fuqarolik-huquqiy shartnomalarning ayrim jihatlari bir qator huquqshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, H.R. Raxmonqulov, M.E. Abdusalomov, F.X. Otaxonov, I.B. Zokirov, N.M. Ismoilov, O. Oqyulov, R. Roʻziyev, M.R. Rahmonqulov, SH.N. Roʻzinazarov, F.Yu. Shodmonov, M.X. Baratov, T.Sh. Qallibekov va boshqa olimlar qishloq xoʻjaligida shartnomaviy majburiyatlar muammolari yuzasidan izlanishlar olib borishgan. SH.N. Roʻzinazarov qishloq xoʻjaligi tuzilmalarining huquqiy maqomi masalalarini tadqiq etish barobarida, mazkur sohadagi hisob-kitob munosabatlarining huquqiy tartibga solinishiga ham eʼtibor qaratgan. Bevosita qishloq xoʻjaligi shartnomalarining mazmun-mohiyati va ulardagi hisob-kitob intizomi borasidagi ayrim masalalar esa K.O. Sindarov tomonidan tadqiq etilgan boʻlib, u tomonidan qishloq xoʻjaligidagi hisob-kitoblarni amalga oshirishdagi muammoli holatlarga bir qadar eʼtibor qaratilgan¹.

MDHga aʼzo davlatlarda hisob-kitob faoliyatining vujudga kelishi, uning oʻziga xos xususiyatlari, shuningdek hisob-kitoblarni amalga oshirishda shartnoma bilan bogʻliq ayrim masalalar bir qator olimlar tomonidan oʻrganilgan. Jumladan, L.A. Luns, M.G. Rozenberg, Y.A. Suxanov, V.V. Vitryanskiy, O.P. Saulyak, B.I. Putinskiy, N.G. Vilkoval, O.N. Sadikov, A.V. Agranovski, M.P. Brezina, S.G. Grishin, I.B. Ilovayskiy, D.V. Polin, A.I. Kovaleva, L.Ye. Popova, A.V. Shamrayev, M.S. Churakov, V.A. Belovlar naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish samaradorligi, toʻlovlar navbatining tartibi, mexanizmi va ularni amalga oshiruvchi subyektlar vakolatlari doirasi hamda javobgarlik masalalarini tadqiq qilishgan².

Xorijlik olimlardan Ye. Godemya, K. Svaygert, X. Kyots, L. Enneksersus, T. Kipp, M. Volf, L. Jyullio de Morandyerlar hisob-kitobga oid fuqarolik munosabatlarni tartibga solish masalarini umumiy asoslarda tadqiq etgan³.

Ammo, qishloq xoʻjaligida hisob-kitoblarga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solishdagi muammolar umumlashtirilgan ilmiy tadqiqot obyekti sifatida oʻrganilmagan. Shu nuqtayi nazardan hisob-kitoblarni tartibga soluvchi qonunlar va

¹ Ushbu olimlarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatida keltirilgan.

² Ushbu olimlarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatida keltirilgan.

³ Ushbu olimlarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatida keltirilgan.

huquqni qo'llash amaliyotidagi konseptual muammolarni ilmiy tushuntirish talab qilinadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda "Qishloq xo'jaligida hisob-kitoblarning huquqiy tartibga solish muammolari" ilmiy-tadqiqot ishining ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi – qishloq xo'jaligidagi hisob-kitoblarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish bilan bog'liq ilmiy-nazariy va amaliy muammolarni hal qilishga doir xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- sud-huquq tizimida hisob-kitoblarga oid munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikni qo'llashning nazariy-huquqiy asoslari va tavsifi;

- qishloq xo'jaligida hisob-kitoblarning tushunchasi, ahamiyati va huquqiy asoslari;

- qishloq xo'jaligida hisob-kitoblar huquqiy asoslarini rivojlanish bosqichlari;

- qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan hisob-kitoblarning o'ziga xos xususiyatlari;

- qishloq xo'jaligida hisob-kitoblarni amalga oshirish usullarini o'rganish va takomillashtirish yo'llari;

- qishloq xo'jaligida naqd pulsiz hisob-kitoblarni qo'llash asoslari va tartibi;

- qishloq xo'jaligida elektron to'lovlarni rivojlantirish bosqichlari, xususiyatlari va istiqbollari;

- qishloq xo'jaligida naqd pulsiz hisob-kitob shakllarini qo'llashning fuqarolik-huquqiy jihatlari;

- qishloq xo'jaligida to'lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitob qilishning nazariy va amaliy jihatlari;

- akkreditivlar bilan hisob-kitob qilishni qishloq xo'jaligida qo'llash istiqbollari;

- to'lov talabnomalari va inkasso kabi hisob-kitob shakllarining qishloq xo'jaligida qo'llanilishning fuqarolik - huquqiy jihatlari;

- xalqaro hisob-kitoblarda chek va plastik kartochkalar bilan hisob-kitob masalalari;

- qishloq xo'jaligidagi hisob-kitoblarni tartibga soluvchi qonunchilikni qo'llash va takomillashtirishning qiyosiy tahlilidan iborat.

Tadqiqotning obyekti qishloq xo'jaligida hisob-kitoblarni tartibga solish bilan bog'liq fuqarolik-huquqiy munosabatlardir.

Tadqiqotining predmeti qishloq xo'jaligida hisob-kitoblarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalardan iboratdir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida tarixiylik, tizimlilik, statistik va xronologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq qilish, milliy qonunchilikni sharhlash, qiyosiy-huquqiy, normativ-huquqiy amaliyotni tahlil qilish,

umumlashtirish, mantiqiylik hamda tegishli ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: Qishloq xo'jaligida hisob-kitoblarni fuqarolik huquqiy tartibga solish muammolari sohasidagi tadqiqot bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mijoz bilan bank o'rtasidagi bank hisob varag'i, shartnomasida shuningdek qonunda, qonunga muvofiq chiqariladigan bank qoidalarida hamda bank amaliyotida qo'llaniladigan ish muomilasi odatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, to'lov topshiriqnomasi bank tomonidan mijozning hisob varag'ida mablag'lar mavjud bo'lgandagina qabul qilinishi asoslantirilgan;

mijozning topshirig'i bajarilmagan yoki tegishli darajada bajarilmagan taqdirda, bank buning uchun Fuqarolik kodeksining 24-bobida nazarda tutilgan asoslarda va miqdorda javobgar bo'ladi. Agar topshiriqnomani bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik to'lovchining topshirig'ini bajarish uchun jalb etilgan bank tomonidan hisob-kitob operatsiyalarni amalga oshirish qoidalarini buzish bilan bog'liq bo'lsa, ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan javobgarlik sud tomonidan mazkur bankka yuklanishi mumkinligi asoslantirilgan;

inkasso topshirig'i respublika budjetiga tushadigan soliqlar va majburiy to'lovlarni undirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan asoslar va tartibda vakolatli davlat organlari tomonidan taqdim etilishi asoslantirilgan;

agar bank tomonidan hisob-kitob operatsiyalarni amalga oshirish qoidalari pul mablag'larini g'ayriqonuniy ushlab qolish natijasida sodir etilgan bo'lsa, bank buning uchun ushbu Kodeks 327-moddasiga muvofiq javobgar bo'lishi asoslantirilgan;

inkasso topshiriqnomasi tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun, shuningdek mablag'larni to'lovchi o'rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan boshqa to'lovlar bo'yicha taqdim etilishi mumkinligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tas-diqlangan "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'y-xatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to'g'risida"gi Nizom va Markaziy bank tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizomga takliflar ishlab chiqilgan;

amalga oshirilgan tahlillar natijasida "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida to'lov balansini mustakamlash to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish zarurligi asoslab berilgan;

"O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish taklifi asoslab berilgan;

turli uslubiy yondashuvlar va qarashlarni tahlil qilish asosida qishloq xo'jaligida hisob-kitoblar tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

qishloq xo'jaligida hisob-kitoblarning huquqiy muammolarini ilmiy tahlil qilish va tashkiliy-huquqiy va qiyosiy o'rganish natijasida muallif tomonidan ushbu ilmiy-tadqiqot natijalariga ko'ra hisob-kitoblarga oid doktrinal ta'riflar ishlab chiqilgan;

hisob-kitoblarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishga qaratilgan qonunchilik muayyan ma'noda dualistik yondashuvni ifodalashi, xususan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 45-bobida belgilangan qoidalar "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizomning ayrim bandlarida bir-biriga zid yoki biri ikkinchisini inkor etadigan tarzda belgilanganligi asoslantirilib, nizomning tuzilishini o'zgartirish va FKning 45-bobi bilan moslashtirish taklif etilgan;

hisob-kitoblarni amalga oshirishda mazkur huquqiy munosabatlar taraflarining huquq va majburiyatlarini aniqlashtirish, bank bilan munosabatda mijozning pul mablag'larini tasarruf etish huquqiga doir kafolatlarni yanada aniqlashtirish va bunda bankning mas'uliyatini oshirish borasidagi fuqarolik qonunchiligidagi mavjud kamchiliklar va bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida FKning 793, 795, 804-moddalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar ilgari surilgan;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirish kiritishga oid takliflar esa, qishloq xo'jaligida hisob-kitoblarni qo'llashga oid qonunchilik tizimidagi mavjud bo'shliqlar va takrorlanishlarni bartaraf etish hamda ularni bir xilda qo'llash imkonini berishi bo'yicha taklif asoslantirilgan.

"2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning "davlat organlari va mansabdor shaxslarning ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish"ga qaratilgan 15-maqsadidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 784-moddasini yangi tahriri ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Mazkur tadqiqot natijalari qonunchilik normalari, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyoti, Konstitutsiya va qonunlarda umume'tirof etilgan qoidalar va ishonchli manbalar asosida yetarli ilmiy dalillar bilan isbotlangan bo'lib, xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan hamda olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-amaliy va nazariy xulosalar hamda taklif va tavsiyalardan kelgusida ilmiy faoliyatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik, bank, xo'jalik, qishloq xo'jaligi hamda tadbirkorlik huquqiga oid normativ hujjatlar loyihalarini tayyorlash, shuningdek qonunosti va bank amaliyotini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish hamda idoraviy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va tegishli o'zgartirishlar kiritishga qaratilgan fuqarolik qonunchiligini nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirishda, hisob-kitoblarga oid dalillardan sud amaliyotida foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishda ketirilgan xulosalar, qoidalar, taklif va tavsiyalardan qishloq xo'jaligidagi hisob-kitoblarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishga oid normalarni qo'llashning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularni qo'llash amaliyotini yaxshilash, "Fuqarolik huquqi" (Maxsus qism), "Tadbirkorlik huquqi", "Majburiyat huquqi" fanlaridan o'quv jarayoni, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlash, hisob-kitoblarni tasniflash,

hisob-kitoblarning alohida turlarini bank amaliyotida qo'llashda foydalanish mumkinligida ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qishloq xo'jaligida hisob-kitoblarni fuqarolik huquqiy tartibga solish muammolari sohasidagi tadqiqot bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mijoz bilan bank o'rtasidagi bank hisob varag'i, shartnomasida shuningdek qonunda, qonunga muvofiq chiqariladigan bank qoidalarida hamda bank amaliyotida qo'llaniladigan ish muomilasi odatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, to'lov topshiriqnomasi bank tomonidan mijozning hisob varag'ida mablag'lar mavjud bo'lgandagina qabul qilinadi degan takliflari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 793-modda ikkinchi qismida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasining 2016 yil 22 apreldagi 122-son dalolatnomasi). Mazkur takliflar mijoz va bank o'rtasida hisob-qitoblarga oid nizolarni hal etishni ta'minlashga xizmat qilgan;

mijozning topshirig'i bajarilmagan yoki tegishli darajada bajarilmagan taqdirda, bank buning uchun Fuqarolik kodeksining 24-bobida nazarda tutilgan asoslarda va miqdorda javobgar bo'ladi. Agar topshiriqnomani bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik to'lovchining topshirig'ini bajarish uchun jalb etilgan bank tomonidan hisob-kitob operatsiyalarni amalga oshirish qoidalarini buzish bilan bog'liq bo'lsa, ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan javobgarlik sud tomonidan mazkur bankka yuklanishi mumkin degan takliflari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 795-moddasi foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasining 2016 yil 22 apreldagi 122-son dalolatnomasi). Mazkur takliflar mijoz va bank o'rtasida hisob-qitoblarga oid nizolarni hal etishni ta'minlashga xizmat qilgan;

inkasso topshirig'i respublika budjetiga tushadigan soliqlar va majburiy to'lovlarni undirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan asoslar va tartibda vakolatli davlat organlari tomonidan taqdim etiladi degan takliflari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 804-modda to'rtinchi qismida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasining 2016 yil 22 apreldagi 122-son dalolatnomasi). Mazkur takliflar mijoz va bank o'rtasida hisob-qitoblarga oid nizolarni hal etishni ta'minlashga xizmat qilgan;

agar bank tomonidan hisob-kitob operatsiyalarni amalga oshirish qoidalari pul mablag'larini g'ayriqonuniy ushlab qolish natijasida sodir etilgan bo'lsa, bank buning uchun ushbu Kodeks 327-moddasiga muvofiq javobgar bo'ladi degan takliflari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 795-moddasi uchinchi qismida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Mehnat va ijtimoiy masalalari qo'mitasining 2016 yil 21 apreldagi 04/3-06-287-son dalolatnomasi). Mazkur takliflar mijoz va bank o'rtasida hisob-qitoblarga oid nizolarni hal etishni ta'minlashga xizmat qilgan.

inkasso topshiriqnomasi tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun, shuningdek mablag'larni to'lovchi o'rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan boshqa

to'lovlar bo'yicha taqdim etilishi mumkin degan takliflari "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi" Nizomning 5-bandi (O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2016 yil 30 martdagi 29-11/229-son dalolatnomasi). Mazkur takliflar mijoz va bank o'rtasida hisob-qitoblarga oid nizolarni hal etishni ta'minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari 12 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 4 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 50 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta monografiya, 2 ta darslik (1 tasi hammualliflikda), 4 ta ilmiy-uslubiy qo'llanma, 42 ta ilmiy maqolalar jurnallarda (shulardan 10 tasi xorijiy nashrlar) va ilmiy konferensiya to'plamlarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish qismi, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 282 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Qishloq xo'jaligida hisob-kitoblarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishning umumiy tavsifi**" deb nomlanib, unda sud huquq tizimida hisob-kitoblarga oid qonunchilikni qo'llashning nazariy-huquqiy asoslari tavsifi, qishloq xo'jaligida hisob-kitoblar tushunchasi va ahamiyati, qishloq xo'jaligida hisob-kitoblar huquqiy asoslarining rivojlanishi, qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan hisob-kitoblarning o'ziga xos xususiyatlari, qishloq xo'jaligida hisob-kitoblarni amalga oshirish usullari, hisob-kitobga oid shartnomalarning fuqarolik huquqida tutgan o'rni va ahamiyati bilan bog'liq masalalar ochib berilgan.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, bozor iqtisodiyotiga o'tishning uch modeli mavjudligini xalqaro tajriba ko'rsatadi: *birinchi yo'l* – G'arbiy Yevropa mamlakatlari va boshqa rivojlangan mamlakatlar yo'li; *ikkinchi yo'l* – mustamlakachilikdan ozod bo'lib, mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tib rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari; *uchinchi yo'l* – ayrim sobiq sotsialistik mamlakatlar yo'li. Ushbu bozorga o'tish yo'llarining umumiy va xususiy jihatlari bor bo'lib, ularning hammasi bir manzilga – bozor iqtisodiyotiga olib keladiki, bu iqtisodiy rivojlanishning qonun-qoidalari va amal qilish prinsiplari ko'p jihatdan umumiydir.

Dissertatsiyada bozor munosabatlari shakllanishining sotsial-iqtisodiy, tarixiy, milliy va xalqaro sharoiti har xil bo'lganligi sababli, unga o'tishning milliy yoki hududiy xususiyatlari ham mavjud bo'lishi asoslantirilgan. Umumiylik va xususiylik turli modellarda turlicha uyg'unlashib mujassamlashadi. Yuqoridagi umumiy modellar quyidagi muhim belgilari bilan bir-biridan farq qiladi.

Birinchi modelning muhim belgilari: AQSH, Yaponiya, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Turkiya davlatlarida oddiy tovar xo'jaligidan – klassik kapitalistik tomonga va undan bozor iqtisodiyoti tomon borilganligida ko'rish mumkin.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda milliy valyutaning erkin konvertlanishi jahon xo'jaligi bilan milliy xo'jaliklarning chuqurroq integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Bugungi kunda dunyodagi bir nechta mamlakatlardagina valyutalar erkin konvertlanadi: AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Kanada, Daniya, Gollandiya (Niderlandiya), Avstraliya, Yangi Zelandiya, Saudiya Arabistoni, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari, Ummon, Malayziya, Singapur, Gonkong, Bahrayn, Kiribati, Seyshel orollari kabi davlatlardir. Bu davlatlar yirik industrial davlatlar bo'lib, asosan neft eksport qiluvchi va rivojlangan ochiq iqtisodiyotli davlatlardir.

Ikkinchi modelning muhim belgilari: Tailand, Tayvan, Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya va boshqa davlatlarda mustamlakachilikdan meros qolgan an'anaviy iqtisoddan bozor iqtisodiga o'tilganligida yuz berganligini qayd etish lozim. Uchinchi modelning muhim belgilari: barcha sobiq Ittifoqdosh respublikalari, sobiq GDR, Polsha, Vengriya, Ruminiya, sobiq Yugoslaviya davlatlarida totalitar buyruqbozlik tizimidan – erkin bozor tizimiga o'tilganligini qayd etish mumkin.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning Yevropacha modelining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bozor iqtisodiyotiga o'tishning ilk Yevropacha modelida, oddiy tovar xo'jaligidan – klassik kapitalizm tomon va undan bozor iqtisodiyoti tomon boriladi. Mazkur yo'l uzoq davom etgan evolyutsion o'zgarishlar orqali, ya'ni o'tmishdagi qoloq an'anaviy iqtisodiyot bag'rida bozor iqtisodiyotiga xos belgilarning sekin asta rivojlanib borishi orqali oddiy tovar-pul munosabatlarining kapitalistik shaklga ko'chishi va nihoyat, uning bozor iqtisodiyotiga transformatsiyasi (aylana borishi) orqali yuz berganligini qayd etish lozim.

Sud-huquq tizimini rivojlantirishning birinchi bosqichida "o'zbek modeli" uchta sinovdan quyidagi tarzda o'tgan deb hisoblash mumkin.

Birinchi sinov – o'tgan asrning 90 yillilarini o'z ichiga olgan yosh mustaqil davlatimizning boshidan kechirgan o'ta qiyin bo'lgan o'tish davrida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash asosida jamiyatni taraqqiyot sari bosqichma-bosqich rivojlanishga qaratilgan qonunchilik hujjatlarini qabul qilishda ahamiyat kasb etgan.

Ikkinchi sinov – 2008-yil jahonda boshlangan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz zarbalarini milliy iqtisodiyotga salbiy ta'sirini nafaqat oldini oldini olish, balki jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha mamlakatimizda "2009-2012-yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturi"ni hayotga tatbiq qilishga qaratilgan barqaror rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqishda nazariy manba sifatida foydalanilgan.

Uchinchi sinov – “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” asarida inqirozdan rivojlanish orqali chiqib ketish birdan-bir to‘g‘ri yo‘l ekanligi ilmiy va amaliy jihatdan ko‘rsatib berildi. Yuqoridagi qayd etilgan “o‘zbek modeli” mamlakat iqtisodiyoti global moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan talofatsiz chiqishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishda ahamiyat kasb etgan.

Mazkur “o‘zbek modeli”da sud-huquq tizimini takomillashtirish davlat siyosatini asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo‘lsa-da, davlat tomonidan mamlakatni boshqarish ichki va tashqi siyosatda yopiqlik siyosati yuritilganligi, amalda davlat manfaatlari xalq manfaatlaridan ustun turganligi oqibatida yuqorida qayd etilgan modelning maqsad va vazifalarini hayotga joriy qilish imkoniyatlari cheklanganligini ko‘rish mumkin.

Bunday siyosat oqibatida birinchi rivojlanish bosqichida sud-huquq tizimi va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda amalga oshirilgan islohot-larning samaradorligi talab darajasida bosqichma-bosqich rivojlan-masligiga olib kelganligi asoslantirilgan holda ko‘rsatib berilgan.

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini sud-huquq tizimi tomonidan qo‘llashni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati xalqaro huquq talablariga muvofiq nazariy va amaliy jihatdan tizimli rivojlantirishga qaratilgan huquqiy chora-tadbirlar respublikamizda Sh.M.Mirziyoyev Prezident sifatida o‘zining faoliyatini boshlagan davrdan boshlandi va xalq manfaatlarini davlat manfaatidan ustunligiga asoslangan rivojlanishga qaratilgan milliy taraqqiyot bosqichiga asos solindi.

Mamlakat iqtisodiyotining boshqa tarmoqlaridan farqli ravishda qishloq xo‘jaligidagi hisob-kitoblar tizimi bir qator o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadiki, bu holat, eng avvalo, oldindan haq to‘lash (bo‘nak), imtiyozli kreditlar berish kabi usul va vositalar orqali amalga oshirilishida namoyon bo‘ladi. Muallif hisob-kitoblarni iqtisodiy va yuridik kategoriya sifatida talqin etib, bu borada adabiyotlarda bildirilgan fikrlarni tahlil qiladi. Jumladan, ishda iqtisodchi olimlar A.D.Ayushiyev, G.M.Vinokurovlarning iqtisodiy nuqtayi nazardan hisob-kitob tushunchasiga bergan ta‘riflari o‘rganilib, iqtisodiy ma‘noda hisob-kitoblar deganda, tovar ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatish sohasida qilingan xarajat va natija o‘rtasidagi nisbatning o‘lchami tushunilishi va bunda mehnat sarfi va xo‘jalik faoliyati natijasi qiymat (pul) shaklida o‘lchanishi tushuntiriladi.

Muallif tomonidan qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan hisob-kitoblarning o‘ziga xos xususiyatlariga oid K.O.Sindarov, V.V.Nedorezkov, Q.Sh.Abulxasanovlarning qarashlari o‘rganilib, qishloq xo‘jaligida hisob-kitoblarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari hamda qishloq xo‘jaligida hisob-kitoblarni amalga oshirish usul va vositalari borasidagi M.B.Usmonov, Sh.N.Ro‘zinazarov, Sh.X.Fayziyev kabi olimlarning fikrlarini tahlil qilinib, bugungi kunda qishloq xo‘jaligida hisob-kitoblarni amalga oshirishda bank hisobvarag‘i shartnomasiga asoslanadigan hisob-kitoblarning turli shakllari qo‘llanilishi, shuningdek kliring usulida hisob-kitob qilish ham muhim o‘rin tutishi asoslab beriladi.

Muallif tomonidan agrar sektorda hisob-kitobga oid munosabatlarni ma'rifiy fuqarolik muomalasini tarkib toptirish talabiga muvofiq qishloq xo'jaligida hisob-kitoblarning huquqiy muammolari ilmiy doktrinasini yaratish, muqaddam ilgari surilgan ilmiy va nazariy g'oyalarni takomillashtirish va to'ldirish barobarida ushbu monografik tadqiqot asosida qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni samarali yakunlashga qaratilgan quyidagi omillar ochib berilgan: *birinchi omil* – bu sohada xususiy va qo'shma mulkchilikni rivojlantirishga qaratilgan huquqiy chora-tadbirlarni, ya'ni davlat dasturlarini ishlab chiqishda puxta hisob-kitoblarga asoslanish; *ikkinchi omil* – xususiy mulkchilik bilan bevosita bog'liq bo'lgan tadbirkorlik subyektlarining huquqiy manfaatlarini himoya qilishni yanada takomillashtirishga qaratilgan normalarni ishlab chiqishda hisob-kitoblarning yuridik ahamiyati va oqibatlarini tadqiq qilish asosida o'rganish; *uchinchi omil* – xususiy mulkchilik hamda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bilan uzviy bog'liq bo'lgan bu sohadagi hisob-kitoblarni tartibga soluvchi mavjud qonunchilikni bozor talablariga muvofiq ishlab chiqishda qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlarining aylanma mablag'lari mavjud emasligini e'tiborga olish; *to'rtinchi omil* – qishloq xo'jaligi korxonalarini, ayniqsa, fermer xo'jaliklarining to'lov qobiliyatini mustahkamlashga qaratilgan huquqiy yechimlarni ishlab chiqishda fermer xo'jaliklarida ish haqini boshqa sohalarga nisbatan darajasi pastligini inobatga olish lozimligi asoslantirilgan.

Ishning «**Qishloq xo'jaligida hisob-kitob turlarining qo'llanilishi**» deb nomlangan ikkinchi bobida qishloq xo'jaligida naqd pulli hisob-kitoblarning amal qilishi, qishloq xo'jaligida naqd pulsiz hisob-kitoblarni qo'llash asoslari va tartibi, qishloq xo'jaligida hisob-kitoblar qo'llanilishida elektron to'lovlarning rivojlanish bosqichlari, xususiyatlari, elektron to'lovlar xizmatlarining huquqiy asoslari va istiqbollari, ularning huquq va majburiyatlari tadqiq qilingan.

Tadqiqot ishida R.E.Tovmasyan, S.S.Gulyamov, H.R.Rahmonqulov, M.H.Rahmonqulov, L.A.Luns, S.Yu.Eshonqulov, Ye.Yu.Kovalenko, L.Ye.Popova, V.V.Nedorezkov, O.V.Yeliseeva, A.N.Ryabov, M.P.Berezina, M.S.Churakov, A.V.Agranovskiy, P.V.Semikov, V.Yu.Ivanovlarning naqd pullar bilan hisob-kitob qilish hamda pulning yuridik tabiatiga oid fikrlari tahlil qilinib, qishloq xo'jaligida naqd pulli hisob-kitoblarni qo'llashning xususiyatlari ochib beriladi. Shu bilan birga, dissertatsiyada naqd pullar bilan hisob-kitob qilishga nisbatan xorijiy mamlakatlar (Italiya, Gretsiya, Shvetsiya, Rossiya)da o'rnatilgan cheklovlar tahlil qilinib, mamlakatimizda bunday cheklash qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtiruvchilar va qayta ishlovchilar o'rtasidagi kontraktatsiya shartnomalarida hamda yetishtiruvchilar hamda xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasidagi xizmat ko'rsatish shartnomalarida hisob-kitobning naqd pulsiz shakli belgilanganligi bilan izohlanishi asoslantiriladi.

Bundan tashqari, muallif, qishloq xo'jaligi korxonalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ularning naqd pul tushumlaridan o'zlarining naqd pulli to'lovlarini amalga oshirishlari, fuqarolik-huquqiy shartnomalar yuzasidan to'lovlarni amalga oshirishlari uchun foydalanishlariga imkon yaratish maqsadga muvofiqligini ishonarli tarzda ochib beradi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonida fermer xo'jaliklari yollanma mehnatdan foydalanishga ehtiyoj sezadilar. Bunda yollanma mehnat fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida amalga oshiriladi va bunda

asosan hisob-kitoblar naqd pul ko‘rinishida amalga oshirilishi lozim bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, fermer xo‘jaliklarining tasarrufida bank hisobraqamlaridagi pul mablag‘laridan tashqari, naqd pulli jamg‘armalar bo‘lishini talab qiladi.

Qishloq xo‘jaligida naqd pulsiz hisob-kitoblarni qo‘llash asoslari va tartibi bevosita mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarida belgilangan. Shu bois ishda milliy qonunchilik normalari hamda huquqshunos olimlar (M.P.Berezina, M.S.Churakov)ning fikrlari tahlil qilinib, quyidagi mulohazalar shakllantirilgan: *naqd pulsiz hisob-kitoblar bank hisobraqamidagi pul mablag‘larini to‘lovchining farmoyishi asosida oluvchining hisobraqamiga ko‘chirib o‘tkazish bo‘yicha harakatlar bo‘lib, u o‘zida to‘lovchining farmoyishi, bankning bu farmoyishni ijro etish borasida harakatlari, mablag‘larni oluvchiga xizmat ko‘rsatuvchi bankning mablag‘larni o‘z mijozining hisobraqamiga kiritib qo‘yishi hamda ushbu jarayonlarni tasdiqlovchi hujjatlarning tegishli bank hujjatlariga tikib qo‘yilishi va to‘lovchi va oluvchi tomonidan hisob-kitoblar amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni buxgalteriya hisobotlari aks etishini ifodalaydi.*

Dissertatsiyada to‘lov usullari borasidagi bir qator olimlar (M.P.Berezina, A.V.Agranovskiy, R.E.Tovmasyan, P.V.Semikov, V.Yu.Ivanov)ning fikrlari bilan bahsga kirishiladi va mazkur atama o‘rniga “pul mablag‘larini o‘tkazish metodi” (aylanma yoki kliring) atamasini qo‘llash zamonaviy hisob-kitob munosabatlarini huquqiy tartibga solish nuqtayi nazardan muhimligi, qolaversa qishloq xo‘jaligida to‘lov vositalari sifatida elektron to‘lov uskunalaridan keng foydalanish, elektron hujjatlarni qo‘llash, to‘lovlarni amalga oshirishda turli zamonaviy usullardan foydalanish qishloq xo‘jaligidagi to‘lov intizomini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi asoslantiriladi.

Jahon zamonaviy bank tizimning rivojlanish tendensiyasi shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirda bank boshqaruvi va bank tuzilmasida, xususan, AQSH, Germaniya, Finlyandiya, Shveysariya, Avstraliya kabi rivojlangan davlatlar bank institutlarining mahalliy bank xizmatlarining bozorida raqobatning kuchayishi sababli, bank mahsulotlarini ishlab chiqish va xizmatlar xarajatini qisqartirish, bir vaqtning o‘zida moliyaviy xizmatlar va mahsulotlar sifatini oshirish maqsadida faoliyatining ayrim turlarini boshqa tashkilotlarga o‘tkazish amaliyotiga o‘tmoqdalar – “outsorsing” modelidan foydalanmoqdalar.

Muallif tomonidan qishloq xo‘jaligiga chet el investitsiyalarini jalb etishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda elektron to‘lovlar va bank elektron xizmatlarini iqtisodiy va huquqiy mohiyati elektron to‘lovlarning rivojlanish bosqichlari, xususiyatlari bo‘yicha ilmiy-nazariy fikrlar yuritish asosida mamlakat qishloq xo‘jaligiga xalqaro xususiy huquq elementlarini kiritish bo‘yicha xalqaro kreditning talablari, xususiyatlari va yechimlari ilmiy asoslantirilgan.

Qishloqni sanoatlashtirishda xalqaro kredit va bank xizmatlarining rolini ko‘rsatib, hisob-kitoblarga oid fuqarolik muomalasida elektron to‘lovlar hamda bank xizmatlaridan foydalanishga qaratilgan huquq norma-larini islohotlar talablariga muvofiq takomillashtirish xodimlarning elektron to‘lovlar xususidagi bilimlari darajasini izchil oshirib borish qishloq tumanlarida tadbirkorlik faoliyatini samarali boshqarish tizimiga asos solishi ko‘rsatib berilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Qishloq xo‘jaligida naqd pulsiz hisob-kitob shakllarining qo‘llanilishi”** deb nomlanadi. Ushbu bobda qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan naqd pulsiz hisob-kitob shakllari va qishloq xo‘jaligida to‘lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitob qilish, akkreditiv bilan hisob-kitob qilishni qishloq xo‘jaligida qo‘llash istiqbollari, to‘lov talabnomalari va inkasso bilan hisob-kitobni amalga oshirishning fuqarolik -huquqiy jihatlari, qishloq xo‘jaligida chek va bank kartalari bilan hisob-kitob qilish masalalarini huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy va amaliy nuqtayi nazardan tahlil etilgan.

Dissertatsiyada naqd pulsiz hisob-kitob shakllari borasida ko‘plab huquqshunos olimlar tomonidan taklif etilgan ta‘riflar o‘rganib chiqilib, mazkur atamaga nisbatan quyidagi mualliflik ta‘rifi taklif etiladi: *naqd pulsiz hisob-kitob shakllari deganda, naqd pulsiz to‘lovlar to‘g‘risidagi huquqiy me‘yorlarda nazarda tutilgan, pul mablag‘larni harakatlantirish va bir hisobraqamdan ikkinchisiga o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarning aylanmasi va bunda qo‘llaniladigan pulni ko‘chirib o‘tkazish usuli tushuniladi.*

Tadqiqot ishida qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan naqd pulsiz hisob-kitob shakllari (to‘lov topshiriqnomalari, akkreditiv, to‘lov talabnomalari va inkasso, chek va plastik kartochkalar)ning umumiy jihatlari sifatida to‘lovlar bank orqali muayyan hujjatlarni rasmiylashtirish orqali amalga oshirilishi, pul mablag‘lari bankka tegishli topshiriq berilganidan so‘ng oluvchining hisobraqamiga o‘tkazilishi hisoblanishi asoslantirilgani holda, naqd pulsiz hisob-kitoblarni alohida shakllarga ajratish uchun asos bo‘ladigan farqlash belgilari ham tahlil etiladi.

Muallifning fikricha, bu belgilar naqd pulsiz hisob-kitoblarni alohida shakllarga ajratadi va ularni bir-biridan farqlash mezonlari sifatida e‘tirof etiladi. Ushbu belgilar sifatida “to‘lov vaqti”, “to‘lovni amalga oshirish joyi”, “to‘lovning kafolatlanganlik darajasi”, “hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi va hujjat aylanishi sxemasi” kabi belgilarning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan.

Dissertatsiyada naqd pulsiz hisob-kitoblar amaldagi qonunchilikda belgilangan shakllarda amalga oshirilishi naqd pulsiz hisob-kitob shakllari to‘lov usullari va o‘zaro farqlanuvchi to‘lov hujjatlari aylanmasini tashkil etishi, bunda bank – mijoz – mablag‘larni oluvchi – mablag‘larni oluvchining banki ishtirokidagi o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish mexanizmi mavjud bo‘lib, ushbu mexanizm orqali pul mablag‘lari to‘lovchining hisobraqamidan oluvchining hisobraqamiga o‘tkazilishi opera-siyasiga oid fuqarolik va bank munosabatlarini tartibga solish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Shuningdek, mazkur bobda qishloq xo‘jaligida to‘lov topshiriq-nomalari bilan hisob-kitob qilishning o‘ziga xos jihatlari tadqiq etiladi. To‘lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitob qilish qishloq xo‘jaligida eng keng qo‘llaniladigan naqd pulsiz hisob-kitob shakli hisoblanadi. Ishda to‘lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitob qilishning o‘ziga xos jihatlari oid huquqshunos olimlar (S.G.Grishin, M.M.Agarkov, G.A.Uxtuyev, S.Churin, L.G.Yefimova, R.R.Tomkovich, A.V.Shamrayev)ning fikrlari o‘rganiladi va shu asosda muallifning naqd pulsiz hisob-kitoblar mazkur shaklining mohiyati va o‘ziga xos jihatlari oid mulohazalari shakllantiriladi. Muallifning fikricha, to‘lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitob qilish naqd pulsiz hisob-kitoblarning eng keng tarqalgan shakli bo‘lib, bunda asosiy

element mijozning erk-irodasi va uni rasmiylashtirish shakli hisoblanishi, bunda shartnomada belgilangan muddatda pul bilan haqni to'lanishi majburiyat bilan bog'liq masalani hal etilishiga olib kelishi va iqtisodiyotda o'zaro qarzdorliklarni kamaytirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan ko'rsatib berilgan.

Dissertatsiyada qishloq xo'jaligidagi hisob-kitoblarda akkreditivni qo'llash masalasi ham tahlil etilgan va akkreditivlarni naqd pulsiz hisob-kitoblarning boshqa shakllaridan farqli jihatlari yoritilgan. Muallif-ning fikricha, akkreditiv ichki va tashqi savdo munosabatlarining hisob-kitob jarayonlarida keng qo'llaniladi. Shu bilan birga, uning boshqa hisob-kitob shakllariga nisbatan o'ziga xos afzalliklari ham bor.

Tadqiqotchi huquqshunos olimlar (M.I.Braginskiy, V.V.Vitryanskiy, M.G.Maseevich, M.X.Baratov, I.B.Anortoyev)larning fikrlarini tahlil qilish asosida Fuqarolik kodeksida akkreditivga oid munosabatlarning asosiy qoidalari belgilanganligi, biroq aksariyat xalqaro iqtisodiy munosabatlarda akkreditivga nisbatan qo'llaniladigan normalar bilan milliy qonunchilik o'rtasida talay ziddiyatli holatlar va qarashlar mavjudligini bildiradi. Hozircha akkreditivga nisbatan muayyan bir huquqiy ta'rif yoki uning mohiyatiga oid biron-bir yaxlit fikr yo'qligi ochib beriladi.

Qishloq xo'jaligida akkreditivlar bilan hisob-kitob qilish, odatda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishda qo'llanilishi mumkin. Zero, akkreditivlar hisob-kitoblarning eng ishonchli shakli sifatida mablag'larni oluvchilar uchun kafolatlangan to'lovlarni ta'minlaydi. Shu bois qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chetga eksport qilishda akkreditiv shaklida hisob-kitoblarni qo'llash maqsadga muvofiqligi to'g'risida ilmiy qarashlar tadqiq etilgan holda, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi olimlar A.V.Shamrayev, I.B.Zokirov, O.Oqyulov, M.X.Baratov, Q.Mehmonov, V.R.Topildiyev, V.Yo.Ergashev, iqtisodchi olimlar Yo.Abdullayev va T.Qaroliyev)larning fikrlarini tahlil qilish asosida ishda naqd pulsiz hisob-kitoblarning inkasso shaklini qishloq xo'jaligida qo'llanilishi tahlil qilinib, inkassoning hisob-kitobning boshqa shakllaridan farqli jihatlari yoritilgan.

Muallifning fikricha, naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda inkasso topshirig'i naqd pulsiz hisob-kitoblarning boshqa shakllaridan quyidagi belgilariga ko'ra farq qiladi: *birinchidan*, mijoz o'z bankiga pul to'lovchidan to'lovni va to'lov akseptini mijoz hisobidan qabul qilish haqida topshiriqnoma yuboradi; *ikkinchidan*, mablag' undiruvchilar hisob-kitob inkasso topshirig'i bo'yicha ijro hujjati va unga tenglashtirilgan hujjatlar sanasi va raqamini ko'rsatib, inkasso topshirig'ini beradi; *uchinchidan*, ijro hujjatida mablag' undiruvchi va to'lovchining to'liq va aniq nomi, undiruv summasi va uning to'lovchining qaysi hisobvarag'idan olinishi ko'rsatilishi lozim; *to'rtinchidan*, davlat byudjetiga, davlat sug'urtasi va ijtimoiy sug'urta hisobiga mablag' o'tkazish haqidagi hujjatlar bank muassasasi tomonidan da'vo muddati cheklanmagan holda qabul qilinadi; *beshinchidan*, muddati o'tgan ijro hujjatlari bank muassasalari tomonidan faqat sudning muddatni tiklash haqidagi qarori nusxasi bilan birga qabul qilinadi. Qaror nusxasi shu qarorni chiqargan sud tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim; *oltinchidan*, sud buyrug'i va yoki ijro varaqasi bo'yicha haq undirish o'sha hujjatda ko'rsatilgan hisobvaraqdan undiriladi;

yettinchidan, ijro hujjatlari bo'yicha undirilgan summa sud ijrochisi ko'rsatgan hisobvaraqa o'tkaziladi, agar bunday ko'rsatma bo'lmasa, sud ijrochisi ishlayotgan sudning depozit hisobvarag'iga o'tkaziladi; *sakkizinchidan*, undiruvni to'xtatish yoki tugatish to'g'risidagi farmoyish, ajrim, arizalarda hujjatning sana va raqami ko'rsatilishi shart; *to'qqizinchidan*, haq undiruvchi boshqa usul bilan undirish uchun sud ijrosini qaytarish haqida topshiriq berishi mumkin.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“Qishloq xo'jaligida hisob-kitob-larni tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirish muammo-lari”**ga bag'ishlangan bo'lib, unda xorijiy mamlakatlar qonunchiligida hisob-kitoblarning qo'llanilishi, qishloq xo'jaligida hisob-kitoblarga oid qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari, qishloq xo'jaligida hisob-kitoblarga oid huquqni qo'llash amaliyoti tahlil etilgan.

Muallifning fikricha, akkreditivga oid huquqiy munosabatlarni tartibga solish masalalari turli davlatlar amaliyotida turlicha yondashuv asosida belgilangan. Germaniya sud amaliyotida akkreditivga topshiriq shartnomasi sifatida qaraladi (Germaniya FKning 662-paragrafi). Fransiya sud amaliyotida esa, u uchinchi shaxs foydasiga bajariladigan shartnomalar turkumiga kiritiladi (Fransiya FKning 119-paragrafi). Akkreditivning afzalligi unda to'lovning to'liq kafolatlanganligidir, kamchiligi esa qimmatligidir. Chunki hozirgi kunda Buyuk Britaniya va Germaniya banklarida ushbu operatsiyalar uchun 1,5 foizdan 3,5 foizgacha ustama haq olinadi.

Tadqiqot ishida qishloq xo'jaligida hisob-kitoblarni huquqiy tartibga solishga oid qonunchilikni takomillashtirish borasida fikr yuritilib, qonunchilikni takomillashtirishga oid bir qator taklif va tavsiyalar ilgari suriladi. Jumladan, muallif “Qishloq xo'jaligida to'lov balansini mustahkamlash to'g'risida”gi Qonunni qabul qilish maqsadga muvofiqligini, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 45-bobida belgilangan qoidalar “O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida”gi nizomda nazarda tutilgan normalar o'rtasidagi ziddiyatli holatlarni bartaraf etish maqsadida FKning 45-bobi va nizomning tegishli bandlariga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish zarurligini asoslantirgan.

Muallif tomonidan qishloq xo'jaligidagi hisob-kitoblar bilan bog'liq huquqni qo'llash amaliyotida yuzaga kelgan muammolardan biri – bu o'z vaqtida fermer xo'jaliklarini qayta tashkil etish va ularning yer maydonlarini optimallashtirish jarayonlarini boshqarish bevosita hisob-kitoblar bilan bog'liq holda o'rganish muhimligini e'tiborga olish lozimligini bildiriladi.

Shu bois ham rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish asosida muammoning yechimlarini topishga qaratilgan qonunchilik normalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish qishloq xo'jaligida islohotlarni samarali yakunlanishiga xizmat qilishi ochib berilgan.

Shuningdek, tadqiqot ishida qishloq xo'jaligida hisob-kitoblarga oid qonunchilik hujjatlarini qo'llashni takomillashtirish maqsadida “Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to'g'risida”gi nizomga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklifi hamda “Hisob-kitobga oid munosabatlarda fuqarolik huquqlari buzilganligi oqibatida yuridik va jismoniy

shaxslarga, fermer va dehqon xo‘jaliklariga yetkazilgan zarar miqdorini qoplash yuzasidan chiqarilgan sud qarorlari ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmonining qabul qilinishi fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa xo‘jaliklari iqtisodiyotini yuksaltirishga xizmat qilishi asoslantirilgan.

Xorijiy davlatlarning huquq tizimi va yuridik fan tarixini o‘rganish asosida hisob-kitoblar fuqarolik muomalasiga oid majburiyat-larni ta‘minlashga qaratilgan huquqiy usul shartnomaviy javobgarlik chorasi sifatida xizmat qilganini qayd etib, mazkur ilmiy-tadqiqot natijalariga asosan hisob-kitoblar xususida quyidagi doktarinal ta‘rif qayd etiladi: *“Globallashuv jarayonida hisob-kitoblar – milliy iqtisodiyotni jahon iqtisodiyoti bilan uyg‘unlashuv jarayonlarida yuridik jihatdan rasmiy-lashtirilgan shartnoma asosida sotib olingan mahsulotlar va tovarlar hamda ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq olishga qaratilgan to‘lovlarni muddatida elektron pul vositasida amalga oshirilishi shartnoma intizomi va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi”*.

Xalqaro kreditlarni qishloq xo‘jaligiga jalb qilish orqali chet el investitsiyalarining qishloq xo‘jaligi munosabatlariga kirib kelishi ta‘minlanadi. Bu esa, o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish asosida qishloq xo‘jaligida import o‘rnini bosadigan hamda eksportga yo‘naltirilgan tovarlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilishiga asos soladi. Shu asosda, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotida xorijiy elementlar va xususiy mulkchilik hamda ijtimoiy sheriklik ishtirokidagi huquqiy munosabatlarni rivojlanishi ilmiy jihatdan asoslantirilgan.

XULOSA

Qishloq xo‘jaligida hisob-kitoblarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishni kompleks tadqiq etish va boradagi huquqni qo‘llash amaliyotini tahlil qilish asosida quyidagi konseptual xulosalar qilindi va tegishli qonunchilik hujjatlarini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Turli uslubiy yondashuvlar va qarashlarni tahlil qilish asosida qishloq xo‘jaligida hisob-kitoblar tushunchasiga mualliflik ta‘rifi ishlab chiqildi: *“Qishloq xo‘jaligida tovar ishlab chiqarish bilan bog‘liq ish bajarish, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hamda yetkazib berishda bir shaxsning tasarrufidan ikkinchi shaxsning tasarrufiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan pul mablag‘larini belgilangan tartibda rasmiylashtirish tizimi vositasida yoki ma‘lum bir harakat (naqd pul bilan hisob-kitob qilish orqali pulni qo‘ldan-qo‘lga topshirish) tushuniladi.*

Ushbu amaliyotda huquqbuzarlikka sabab bo‘lgan omillar va shartlarni fuqarolik huquqi nuqtayi nazaridan aniqlashtirish hisob-kitobga oid qonunchilikni bir xilda qo‘llash va sharhlashda muhim ahamiyat kasb etadi”.

2. Qishloq xo‘jaligida hisob-kitoblarning huquqiy muammolarini ilmiy jihatdan kompleks tahlil qilish va tashkiliy-huquqiy qiyosiy o‘rganish natijasida

muallif tomonidan ushbu ilmiy-tadqiqot natijalariga ko'ra hisob-kitoblarga oid quyidagi doktrinal ta'riflar ishlab chiqildi: *“Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari deganda, mijoz bilan bank o'rtasida tuzilgan bank hisobvarag'i shartnomasida belgilangan tartib qoidalarga muvofiq mijozga tegishli bo'lgan hisobvaraqdagi mablag'lar doirasida mijozning xohish-irodasini amalga oshirish yuzasidan uning bankka bergan farmoyishida ko'rsatilgan to'lov shakliga asosan rasmiylashtirgan holda boshqa shaxsning shu bankdagi yoki boshqa bankdagi hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazishga qaratilgan bank operatsiyalari harakati tushuniladi”*;

“Qishloq xo'jaligida davlat buyurtmasi asosidagi hisob-kitob munosabatlari deganda, qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari bilan tayyorlovchilar o'rtasida tuzilgan kontraktatsiya shartnomalarida davlat tomonidan xarid rejalari asosida belgilangan hisob-kitobga oid majbu-riyatlar ijrosini ta'minlashga qaratilgan fuqarolik, shartnomaviy munosabatlari tushuniladi”.

“Qishloq xo'jaligida hisob-kitoblar taraflar tomonidan to'liq amalga oshirilishi fuqarolik munosabatlarining yakunlovchi bosqichi bo'lib, uning natijasida tomonlar o'z zimmlariga olgan pul majburiyatlarini bajarilganligini anglatadi”.

“Qishloq xo'jalik subyektlari tomonidan kontraktatsiya shartnomasida belgilangan davlat xarid rejalari bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik hamda davlat buyurtmasi asosida topshirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlariga shartnomada belgilangan haqni muddatida to'lamaslik holatlari hisob-kitobga oid davlat intizomini buzish deb hisoblanadi hamda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi”.

Yuqorida qayd etilgan mualliflik ta'riflarida belgilangan tartib va qoidalar hisob-kitoblarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarida normalar sifatida belgilanishi qishloq xo'jaligida hisob-kitobga oid munosabatlarning ishtirokchilari tomonidan pul majburiyatlarini muddatida bajarilishini ta'minlaydi hamda hisob-kitoblar jarayonlarida turli huquqbuzarliklar oldini olinishiga va pul mablag'laridan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 784-moddasi ikkinchi qismiga asosan hisobvaraqdagi pul mablag'lari unga qo'yilgan barcha talablarni qondirish uchun yetarli bo'lmagan taqdirda, pul mablag'larini o'chirish navbati belgilangan: ikkinchi navbatda boshqa pul talablarini qondirishni nazarda tutuvchi ijro hujjatlari bo'yicha pul o'chirilishi belgilanganligi sababli, bunda sudlar, jumladan, iqtisodiy, fuqarolik sudi ijro hujjatlari bo'yicha pul o'chirilishi mazkur qoidaga asosan ikkinchi navbatga qoldiriladi va sudlarning ijro hujjatlari belgilangan muddatda ijro etilmasligiga olib keladi. Bunday huquqiy tartibning o'rnatilishi sharoitida sud ijro hujjatlari bo'yicha ijro etilmay qolgan qismining summasi hozirgi kunda juda yuqori darajadagi summalarda saqlanib qolmoqda.

“2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”ning 15-maqsadida davlat organlari va mansabdor shaxslarning ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish belgilab qo'yilganligiga asoslanib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 784-moddasining uchinchi qismida *“mijozning hisobvaraqdagi pul mablag'lari unga qo'yilgan barcha talablarni qondirish uchun*

yeterli bo'lmagan taqdirda, sud ijro hujjatlari bo'yicha pul mablag'larini o'chirish navbatini birinchi navbatga o'tkazish" taklif etiladi.

4. Hisob-kitoblar fuqarolik muomalasiga oid majburiyatlarni ta'minlashga qaratilgan huquqiy usul, shartnomaviy javobgarlik chorasi sifatida xizmat qilishini qayd etib, hisob-kitoblar xususida quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: *hisob-kitoblar bozor xo'jaligi va shartnoma munosabatlarining rivojlanishida qishloq xo'jaligi globallashtirishda yuridik vosita bo'lib xizmat qiladi, milliy hamda xalqaro qonunchilik ta'sirida namoyon bo'ladi, shartnoma intizomini mustahkamlashda alohida huquq instituti elementi sifatida qishloq xo'jaligi sohasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi.*

Qishloq xo'jaligi subyektlari faoliyatini huquqiy tartibga solishning samaradorligini oshirishda hisob-kitobga oid fuqarolik qonunchiligi normalarini takomillashtirish qishloq xo'jaligini rivojlantirishning obyektiv zaruriyati hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida hisob-kitoblar yuridik mohiyatiga ko'ra, qarzdor tomonidan ma'lum bir summalarni to'lash, mol-mulkni boshqa shaxsga topshirish, o'zida ma'lum bir qimmatliklarni ifoda etuvchi ekvivalentga ega naqd pul yoki naqd pulsiz to'lov shakllari orqali shartnomada belgilangan hisob-kitoblarni amalga oshirishga doir majburiyatlarni va qarzdorlikni tugatishga qaratilgan harakatlar tizimidir.

Hisob-kitoblarga oid huquqiy munosabatlar fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinuvchi u yoki bu asoslarda xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z faoliyatini amalga oshirishi jarayonida shartnomaga asoslangan tovar-pul munosabatlaridan kelib chiqadigan pul majburiyatlari belgilangan fuqarolik muomalasidir.

5. Qishloq xo'jaligida hisob-kitoblarni amalga oshirish deganda, qishloq xo'jalik subyektlarining o'ziga tegishli bo'lgan pul mablag'ini amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq, qarzdor egaligidan kreditor egaligiga o'tkazish bo'lib, bu sohada debitorlik va kreditorlik qarzlariga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan huquqiy tizim ta'sirida harakatga keluvchi fuqarolik munosabatlari tushuniladi. Qishloq xo'jaligida hisob-kitobga oid pul mablag'larini izchil aylanishini ta'minlashga qaratilgan fuqarolik huquqi normalarini takomillashtirishning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligida xususiy sheriklikni rivojlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish vazifalari yotadi.

6. Qishloq xo'jaligi hisob-kitoblari tizimida plastik kartochkalar muomalasidagi kamchiliklarni bartaraf etish raqobat muhitini barpo etish, iste'molchi sifatida plastik kartochkalardan foydalanish darajasini oshirish, plastik kartochkalar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida o'tkazish va naqd pul bilan ta'minlash majburiyatini belgilash taklif etiladi.

Yuqorida taklif etilgan bunday yondashuvlar fuqarolik huquqi nuqtayi nazaridan keng qamrovli bo'lib, o'zida naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining asosiy konstruktiv xususiyati pulning to'lov vositasi sifatidagi funksiyasida namoyon bo'ladi hamda fuqaroviy-huquqiy tartibga solish mexanizmi ta'sirida shartnomada belgilangan qulay va universal to'lov usullari bilan yuridik jihatdan ta'minlanishiga xizmat qiladi.

7. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash uchun puxta hisob-kitobga asoslangan biznes-loyihalarga imtiyozli kreditlar ajratish yoki qishloq xo‘jaligiga ichki yoki tashqi investitsiyalarni jalb qilish vositasida sohaga ilg‘or texnologiya va yangi texnikani joriy qilish hamda import o‘rnini bosadigan, eksportga yo‘naltiriladigan sanoatlashgan ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etishga qaratilgan huquqiy mexanizmni ishlab chiqishda Yangi O‘zbekistonni taraqqiy ettirishga qaratilgan dasturlar ijrosini ta‘minlash vazifalarini hal etishni nazarda tutgan huquq normalarini yaratish talabi qishloq xo‘jalik iqtisodiyoni rivojlantirishni obyektiv zaruriyatiga asoslanadi.

8. Mamlakat qishloq xo‘jaligida hisob-kitoblar tizimidagi qonunchilik bazasini muntazam monitoring qilish mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, ayniqsa, sohada naqd pulsiz hisob-kitoblar samaradorligini oshirish maqsadida to‘lovlar navbatining tartibi va mexanizmi, ularni amalga oshiruvchi subyektlarning vakolatlari doirasi hamda javobgarligi, qishloq xo‘jaligida hisob-kitoblar subyektlarining pul mablag‘larini sug‘urtalash tizimi va mexanizmi, bank, kredit tashkilotlarining hisob-kitoblarni o‘z vaqtida lozim darajada bajarmaganliklari uchun javobgarligi va yetkazilgan zararni qoplash shartlari, banklar va kredit tashkilotlarining qishloq xo‘jaligida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishdagi vakolatlari doirasini yanada aniqlashtirish islohotlarning zaruriy talabidir.

9. Qishloq xo‘jalik hisob-kitoblarini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarida hisob-kitoblarga oid majburiyatlarni ta‘minlashga qaratilgan huquqiy usul fuqarolik-huquqiy javobgarlik chorasi sifatida neustoyka belgilash bo‘yicha quyidagi doktrinal ta‘rif qayd etiladi:

– *neustoyka bozor xo‘jaligi va shartnoma munosabatlarining rivojlanishida yuridik vosita sifatida huquq ta‘sirida namoyon bo‘ladi hamda shartnoma intizomini mustahkamlashda alohida yuridik ahamiyat kasb etadi;*

– *neustoyka hisob-kitob subyektlari faoliyatida fuqarolik va moliya huquqbuzarligining oldini olishga qaratilgan maqsad va vazifani bajaradi;*

– *neustoyka qarz majburiyatlarini tartibga solishga nisbatan ikki xil: birinchisi, jazolovchi (jarima tariqasidagi) neustoyka bo‘lib, unda taraflar o‘z zimmalariga olgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmagan hollarda qo‘llash masalasi o‘zaro tuzilgan shartnomada belgilangan bo‘ladi; ikkinchisi, hisob-kitobga asoslangan neustoyka bo‘lib, taraflar tomonidan tuzilgan shartnoma shartlari umuman bajarilmagan hollarda keltirilgan zarar hisob-kitob qilish asosida aniqlanadi.*

10. Muallif tomonidan ushbu dissertatsiyada fuqarolik huquqining obyekti bo‘lgan hisob-kitoblarga oid munosabatlarning huquqiy tabiatini tartibga soluvchi fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish bilan bog‘liq nazariy konstruksiyalarni amalga oshirishning amaliy jihatlari bilan bog‘liq masalalar tadqiq qilingan holda, fuqarolik qonunchiligini rivojlantirish bilan bog‘liq konsepsiyaga asosan ilgarigi ma‘lum bo‘lmagan yangi tushunchalarni shakllantirish natijasida O‘zbekiston Respublikasining “Naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinishi taklif etiladi.

11. Qonunchilikda naqd pulsiz hisob-kitob yo‘li bilan pul majburiyatini lozim darajada bajarish yoki bajarish joyi bo‘yicha qonuniy yondashuv mavjud bo‘lmaganligi sababli, uni aniqlashning ikki varianti taklif etilgan:

Birinchi variant. Fuqarolik qonunchiligida naqd bo‘lmagan pul mablag‘larini o‘tkazib berish bo‘yicha pul majburiyatini bajarilganlik vaqti aniq bo‘lmaganligini bartaraf etish maqsadida FKga quyidagi qoidani kiritish taklif etiladi: *“qarzdorning naqd bo‘lmagan pul mablag‘ini o‘tkazib berish bo‘yicha pul majburiyati, to‘lovni qabul qiluvchi bank yoki kreditor tomonidan ko‘rsatilgan boshqa bankda ochilgan maxsus hisobraqamga pul mablag‘ini o‘tkazib bergan paytdan boshlab bajarilgan hisoblanadi”*.

Ikkinchi variant. Naqd pulsiz hisob-kitob yo‘li bilan pul majburiyatini lozim darajada bajarilgan deb hisoblash, sharnomada yoki to‘lov hujjatida belgilangan miqdordagi pul mablag‘ini to‘lovni qabul qiluvchining (pul majburiyati bo‘yicha kreditor) hisob raqamiga kelib tushgan paytdan boshlab topilishi tushuniladi.

12. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi sohasidagi to‘lovlar tizimini isloh qilishda zamonaviy to‘lov usullari hisoblangan blokcheynga asoslangan qishloq xo‘jaligi fermerlar va xaridorlar uchun ommaviy ishlab chiqarilgan mahsulotlar narxini yanada shaffof qilishi mumkin. Blokcheynga asoslangan bozor xaridorlar va sotuvchilarga muzokaralarda taklif qilingan shartlarni shu kabi so‘nggi bitimlar haqidagi ma‘lumotlar bilan solishtirishga imkon beradi. Dunyo bo‘ylab fermerlar o‘z mahsulotlari aslida qancha qiymatga ega ekanini aniqlashlari va real vaqt rejimida sotishlari mumkin. Bundan tashqari, blokcheynga asoslangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxini arzonlashtirish va, shu bilan birga, ularning qayerdan kelganini kuzatishni osonlashtirishi mumkin. Blokcheyn haqiqiy, organik, mahalliy mahsulotlarni arzon va hamma uchun ochiq qilish uchun kalit vazifasini bajarishi mumkin.

13. Distributed ledger technologies (Taqsimlangan reestr texnologiyasi (TRT)) ta‘minot zanjirlari qishloq xo‘jaligida samaradorlikni sezilarli darajada oshirish va ishonch, shaffoflik va kuzatuv mexanizmini takomillashtirish orqali global oziq-ovqat tizimini ijobiy tomonga o‘zgartirishi mumkin. Raqamli yozuvlar va shifrlashdan foydalanish, shuningdek operatsiyalar paytida va ma‘lumotlarni saqlash jarayonida vositachilarni istisno qilish orqali TRTlar qishloq xo‘jaligi tovarlarini tarqatish zanjirlariga ham, qishloqlarni rivojlantirishda turli xil iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Kelajakda ushbu texnologiya qishloq xo‘jaligi tovarlarini taqsimlash zanjirlarini soddalashtirish va birlashtirish, oziq-ovqat xavfsizligi yechimlarini topish, qishloq xo‘jaligi sohasidagi savdo, moliya va boshqa moliyaviy xizmatlardan foydalanishni soddalashtirish, bozor shaffofligini oshirishga, yerga egalik qilish tizimlarida katta huquqiy ishonchni ta‘minlashga olib kelishi mumkin.

14. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida Yagona to‘lov sxemasi (SPS) fermerlarni ekinlarni yetishtirish, hayvonlarning farovonligi va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida o‘z yerlarini minimal standartlarga (“o‘zaro moslik”) muvofiq boshqarganliklari uchun haq to‘lash tizimi sifatida qo‘llaniladi. Fermerlar har yili o‘z xo‘jaligiidagi barcha qishloq xo‘jaligi uchastkalarida yetishtiriladigan mahsulotlar uchun haq to‘lanishini e‘lon qilib, da’vo arizasi bilan murojaat qilishlari

mumkin. Fermerning faollashtirish huquqi to'g'risidagi bayonoti fermerning "Yagona to'lov" so'rovidir. Fermerga uning e'lon qilingan to'lov huquqiga muvofiq summa to'lanadi, ularning har biri e'lon qilingan yerning tegishli gektariga to'g'ri keladi ("to'lov uchun faollashtirilgan"). Bitta to'lov uchun "da'vo qilingan hudud" mos keladi. Yuqoridagi omillar talab qilingan to'lov huquqlarini anglatadi. Fikrimizcha, bunday tizimni O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasiga nisbatan ham qo'llash o'rinlidir.

15. Qishloq xo'jaligida bugungi kunda hisob-kitob masalalarida ko'p hollarda klasterlar va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi shartnoma munosabatlarida hisob-kitob tizimlarida muayyan muammolar kuzatilmoqda. Fikrimizcha, mazkur muammolarning yechimi sifatida klasterlar tomonidan fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun haq to'lashning bosqichma-bosqich tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Qishloq xo'jaligi mahsulotini ekish bosqichida, agrotexnik tadbirlarni o'tkazish bosqichida va mahsulot yetishtirilgan hamda topshirilgan paytdagi bozor bahosida uzil-kesil hisob-kitob qilish tartibini huquqiy mexanizm sifatida joriy qilish yuqoridagi muammoni yuridik jihatdan hal etilishiga xizmat qiladi.

16. Qishloq xo'jaligida hisob-kitob munosabatlarini takomillash-tirish, fermer xo'jaliklari va dehqon xo'jaliklari tomonidan yetish-tirilgan mahsulotlar uchun kafolatlangan to'lovlar tizimini yaratish maqsadida qonunchilikka eskrou hisobvarag'iga oid qoidalarni kiritish hamda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun mazkur tizimdan foydalangan holda haq to'lash amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

17. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, aholini ish bilan band qilishda investitsiyalar yuqori ahamiyat kasb etadi. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan investitsiya tadbirlari amalga oshirilmoqda, ushbu maqsadlarni amalga oshirishda imtiyozli va foizsiz kreditlar ajratishni yanada ko'paytirish biznesda xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan dasturlarni moliyalashtirish qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxi oshib ketishining oldini olishga xizmat qiladi.

18. Amaldagi qonunchilikda naqd pulsiz hisob-kitob shakllarining turlari borasida turli xildagi yondashuv mavjudligi ko'zga tashlanadi. Jumladan, cheklar bilan hisob-kitob qilish FKda belgilangani holda "Naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi nizomda bunday hisob-kitob shakli mavjudligi nazarda tutilmagan. Bunday holatda cheklarga oid qonunchilikdagi yondashuvlarni bixillashtirish hamda zamonaviy texnologiyalar taraqqiyotidan kelib chiqib, hisob-kitobning mazkur shaklidan to'liq voz kechish o'rinli bo'ladi.

19. "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi bilan qonunchilikda ikki xil yondashuv yuzaga keldi. Gap shundaki, "hisob-kitoblar" termini o'rniga ko'p hollarda "to'lovlar" termini qo'llanilmoqda. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari esa "to'lov vositalari" termini sifatida ishlatilmoqda. Mazkur vaziyatda FKning 3-moddasi ikkinchi qismida belgilangan "boshqa qonunlar va qonunchilik hujjatlaridagi fuqarolik qonunchiligi normalari ushbu Kodeksga mos bo'lishi shart"ligi qoidasiga bu o'rinda amal qilinmaganligi ko'zga tashlanadi. Biroq nima bo'lganda ham qonunchilikda ushbu muammoning yechimi topish, FK,

“To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida”gi nizomda qo‘llaniladigan atamalarni birxillashtirish hamda zamonaviy va tushunarli termin sifatida “to‘lovlar” atamasini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

20. “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonunda to‘lov vositalari sifatida “bank kartasi”, “elektron pullar” kiritilgan. Biroq FKda bu turdagi to‘lov vositalarini fuqarolik muomalasining obyekt sifatida e‘tirof etishga oid tegishli norma mavjud emas. Mazkur bo‘shliqni bartaraf etish maqsadida FKda raqamli huquqlarga oid qoidalarni mustahkamlash lozim bo‘ladi.

21. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun to‘lovlarni soddalashtirilgan tarzda amalga oshirish va turli xildagi byurokratik taomillarni oldini olish uchun bank kartalari orqali hisob-kitob qilish tizimini yo‘lga qo‘yish o‘rinli bo‘lar edi. Bunda tegishli turdagi bank kartalari fermer yoki dehqon xo‘jaligiga taqdim etilishi ham qishloq xo‘jaligi sohasida ishlar bajarilganligi haqida tayyorlovchi tomonidan tasdiqlangan ma‘lumotlar asosida mablag‘lar o‘tkazilib berilishini joriy etish zarur. Bugungi rivojlanish davrida qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan fermer xo‘jaliklarida bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq faoliyat yuritishi uchun aylanma mablag‘larning mavjud emasligi qishloq xo‘jaligi sohasida to‘lov tizimini islohotlar talablari darajasida shakllanmasligiga olib kelmoqda. Shu bois ham qishloq xo‘jaligi rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish asosida O‘zbekiston Respublikasining “Qishloq xo‘jaligida to‘lov balansini mustahkamlash to‘g‘risida”gi Qonunini qabul qilish maqsadga muvofiq.

II. Qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish-ga oid xulosalar:

1. Hukumatning “Fermer xo‘jaliklari tomonidan naqd pulli hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomini qabul qilish va bunda fermer xo‘jaliklari tomonidan mavsumiy ishlarni bajarishda amalga oshirilayotgan naqd pulli to‘lovlarni amalga oshirish, rasmiylashtirish, ularga oid buxgalteriya hisobotlarini yuritishga oid normalarni belgilash maqsadga muvofiq.

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020-yil 13-apreldagi 3/12-son Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida”gi nizom (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 13-aprelda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami: 3229)ning “Umumiy qoidalar” deb nomlanadigan I bobida alohida 2-bandini quyidagicha ifodalash zarur: *“Naqd pulsiz hisob-kitoblar quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi: naqd pulsiz hisob-kitoblarning shaklini tanlash erkinligi; to‘lovlarning tezkorligi; to‘lovlarning ta‘minlanganligi; hisob-kitoblarni bank hisobraqami bo‘yicha amalga oshirilishi”*.

3. “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘ri-sida”gi nizom 33-bandini quyidagicha ifodalash zarur: *“to‘lov topshiriq-nomalari bilan hisob-kitoblar tovarlarning (ishlar, xizmatlar) haqini to‘lash yoki boshqa to‘lovlarda amalga oshirilishi mumkin”*.

4. FKning 792-moddasi ikkinchi qismini quyidagi tahrirda belgilash lozim: *“to‘lov topshiriqnomasi bo‘yicha hisob-kitob qilish tartibi qonun, bank amaliyotida*

qo'llaniladigan ish muomalasi odatlarida qo'llaniladigan bank qoidalari yoki shartnoma vositasida tartibga solinadi".

5. FKning 793-moddasi uchinchi qismini quyidagi mazmundagi norma bilan to'ldirish o'rinlidir: *"mijoz o'tkazma hali amalga oshirilmagan har qanday vaqtda to'lov topshiriqnomasini bekor qilishga haqlidir. Bunday holatda bank mablag'ni mijoz hisobvarag'iga qayta kiritishi shart"*.

6. FKning 794-moddasini quyidagi tahrirda belgilash taklif etiladi: *"Mijozning to'lov topshiriqnomasini qabul qilgan bank mijoz topshiriq-nomasiga binoan quyidagi usullardan birida uni bajarishi shart: mablag'larni oluvchining ushbu bankda ochilgan bank hisobvarag'iga o'tkazish; mablag'larni oluvchining mijoz bankida ochilgan hisobvarag'iga o'tkazish yoki to'lov topshiriqnomasini mablag'larni qabul qiluvchi bankka mijoz bankidagi bank hisobvarag'idan pul mablag'larini o'chirish uchun berish; to'lov topshiriqnomasini vositachi bankka pul mablag'larini mablag' oluvchining bankiga o'tkazish uchun berish; bank qoidalari va shartnomada nazarda tutilgan boshqa usul bilan. Bank mijozning topshiriqnomasida ko'rsatilgan hisobvaraqaqa pul mablag'larini o'tkazish operatsiyalarini bajarish uchun boshqa banklarni jalb qilishga haqli.*

Bank mijozga uning to'lov topshiriqnomasi bajarilgani haqida, agar qisqaroq muddat bank qoidalari va shartnomada belgilangan bo'lmasa, to'lov topshiriqnomasi bajarilgan kundan keyingi bank kunidan kechiktirmasdan xabar berishi kerak. Bank hisobvarag'i ochilmagan holda pul mablag'larini o'tkazishda to'lovchining banki to'lovchi-fuqaroning topshiriqnomasiga asosan uning naqd pul mablag'larini shu yoki boshqa bank orqali oluvchiga o'tkazish majburiyatini oladi. Bank hisobvarag'ini ochmay pul o'tkazish haqidagi topshiriqnomani bajarish uchun pul mablag'lari yetarli ekani to'lovchi tomonidan bankka taqdim etilgan pul miqdoridan kelib chiqib aniqlanadi".

7. FKning 795-moddasini quyidagi tahrirda ifodalash maqsadga muvofiq: *"Mijozning topshirig'i bajarilmagan yoki tegishli darajada bajarilmagan taqdirda, bank buning uchun FKning 24-bobida nazarda tutilgan asoslarda va miqdorda javogar bo'ladi. Agar topshiriqnomani bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik to'lovchining topshirig'ini bajarish uchun jalb etilgan bank tomonidan hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari buzish bilan bog'liq bo'lsa, ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan javobgarlik sud tomonidan mazkur bankka yuklanishi mumkin.*

Agar bank tomonidan hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari pul mablag'larini g'ayriqonuniy ushlab qolish natijasida sodir etilgan bo'lsa, bank buning uchun ushbu Kodeks 327-moddasiga muvofiq javobgar bo'ladi".

8. FKning 796-moddasi ikkinchi-uchinchi qismlari sifatida quyidagi normalarni kiritish va ikkinchi-uchinchi qismlarni to'rtinchi-beshinchi qismlar sifatida belgilash taklif etiladi: *"Bank-emitent boshqa bankka (ijrochi bankka) to'lovlarni amalga oshirish, mablag'ni oluvchi tomonidan berilgan o'tkazma vekselni akseptlash va to'lash, akkreditivda nazarda tutilgan hujjatlar mablag'larni oluvchi tomonidan taqdim etilganda akkreditivni bajarishga qaratilgan boshqa harakatlarni akkreditiv shartlariga muvofiq amalga oshirishga vakolat berishi mumkin.*

Ijrochi bank emitent bank topshiriqnomasini qabul qilishi yoki emitent bankka tegishli xabarnoma yuborgan holda bunday topshiriqnomadan bosh tortishga haqli. Ijrochi bank tomonidan topshiriqnomani bajarishdan qisman bosh tortilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Ijrochi bank, jumladan akkreditiv shartlariga muvofiq harakatlarni amalga oshirish yo‘li bilan, rozilik bildirgan holatlarda bank-emitent topshiriqnomasini qabul qilgan deb hisoblanadi. Ijrochi bankning akkreditivni bajarish haqidagi roziligi uni bank-emitent tomonidan bajarilishiga monelik qilmaydi”.

9. FKga 791¹-modda sifatida “O‘tkazma (transferabl) akkreditiv”ga oid qoidalarini kiritish va uni quyidagi tahrirda belgilash lozim:

“791¹-modda. O‘tkazma (transferabl) akkreditiv

Agar akkreditiv shartlarida nazarda tutilgan va ijrochi bank shunday bajarishga rozilik bildirgan holatlarda akkreditiv mablag‘ oluvchi sifatida ko‘rsatilgan shaxs foydasiga ijro etilishi mumkin (bundan keyingi o‘rinlarda – o‘tkazma (transferabl) akkreditiv deyiladi). Bunda mablag‘ni oluvchi o‘zi ko‘rsatgan shaxs tomonidan o‘tkazma (transferabl) akkreditivni ijro etish uchun taqdim etiladigan hujjatlarni belgilashga haqlidir.

Bu hujjatlar o‘tkazma (transferabl) akkreditiv shartlarida ko‘rsatilmagan bo‘lishi mumkin. Ushbu moddaga asosan akkreditiv ijro etilishi jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan mazkur Kodeksning 22-bobida ko‘rsatilgan talabdan voz kechish haqidagi qoidalar qo‘llanilmaydi. Mablag‘ni oluvchi ijrochi bankka ariza orqali o‘tkazma (transferabel) akkreditiv kimning nomiga ijro etiladigan shaxsni (keyingi o‘rinlarda – ikkinchi oluvchi), ushbu shaxs o‘z foydasiga ochilgan akkreditiv shartlariga asosan tegishli hujjatlarni taqdim etgunigacha ko‘rsatishga haqlidir.

Mablag‘ni oluvchi ikkinchi oluvchi sifatida bir nechta shaxsni ko‘rsatishga haqlidir. Ikkinchi oluvchi o‘tkazma (transferabl) akkreditiv ijro etilishi kerak bo‘lgan, mablag‘ oluvchidan tashqari, boshqa shaxsni ko‘rsatishga haqli emas. O‘tkazma (transferabl) akkreditivni bajarish tartibi va shartlari qonun, bank qoidalari va akkreditiv shartlari bilan belgilanadi”.

10. FKning 800-moddasini quyidagi mazmundagi birinchi qism bilan to‘ldirish va birinchi-ikkinchi qismlarni tegishincha ikkinchi-uchinchi qismlar deb hisoblash zarur: Akkreditivni ijro etish quyidagi usullarda amalga oshirilishi mumkin: 1) akkreditiv shartlariga muvofiq hujjatlar taqdim etilganda, akkreditiv shartlarida ko‘rsatilgan muddat yoki muddatlarda mablag‘ni oluvchiga to‘lovni amalga oshirish; 2) to‘lov muddati kelgan vaqtda o‘tkazma vekselni unga to‘lov to‘lash yo‘li bilan aksept qilish; 3) akkreditivda ko‘rsatilgan boshqa usulda.

11. FKning 802-moddasini quyidagi mazmundagi uchinchi-beshinchi qismlar bilan to‘ldirish va uchinchi qismini tegishincha oltinchi qism deb hisoblash zarur: “akkreditiv bo‘yicha topshiriqnomani qabul qilgan ijrochi bank akkreditivni ijro etmaganlik yoki lozim darajada ijro etmaganlik uchun bank-emitent oldida javobgar bo‘ladi. Akkreditiv ochish va ijro etish bo‘yicha to‘lovchining topshiriqnomasini olgan bank-emitent bu topshiriqnomani ijro etmaganlik yoki lozim darajada ijro etmaganlik uchun pul to‘lovchi oldida javobgar bo‘ladi. Bank-emitentning akkreditivni tasdiqlash va ijro etish haqidagi topshiriqnomasini olgan tasdiqlovchi

bank bu topshiriqnomani ijro etmaganlik yoki lozim darajada ijro etmaganlik uchun bank-emitent oldida javobgar bo'ladi".

12. FKning 804-moddasi ikkinchi qismi sifatida quyidagi qoidani kiritish va ikkinchi-beshinchi qismlarni tegishincha uchinchi-oltinchi qismlar deb hisoblash lozim bo'ladi: *"inkasso topshirig'i respublika byudjetiga tushadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan asoslar va tartibda vakolatli davlat organlari tomonidan taqdim etiladi"*.

13. "Naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi nizomning 66-bandi ikkinchi xatboshisi sifatida quyidagi qoidani kiritish lozim deb hisoblaymiz: *"inkasso topshiriqnomasi tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun, shuningdek mablag'larni oluvchi hamda mablag'larni to'lovchi o'rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan boshqa to'lovlar bo'yicha taqdim etilishi mumkin"*.

14. "Naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi nizomning 79-bandini o'zgartirish va uni quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiqdir: *«akkreditiv bo'yicha hisob-kitob qilishda mijozga xizmat ko'rsatuvchi akkreditiv ochgan bank (bank-emitent) mablag'larni oluvchi hujjatlarni taqdim etgan va akkreditivda nazarda tutilgan boshqa shartlarni bajargan taqdirda to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi»*.

15. Akkreditiv bo'yicha hisob-kitob qilinganda, akkreditiv ochgan bank – bank-emitent deb yuritiladi va mijozga xizmat ko'rsatuvchi har qanday bank ham akkreditiv ochmasligi mumkin. Mazkur holatlarni bartaraf etish uchun nizomning 81-bandini quyidagi mazmunda belgilash lozim: *"qoplangan (deponentlangan) akkreditiv ochilgan taqdirda, mablag'larni to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bank uni ochish vaqtida mijozning o'z mablag'larini yoki unga berilgan kreditni mablag'larni to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bankning majburiyatlari amal qilib turadigan butun muddatga ijrochi bank ixtiyoriga o'tkazishi shart"*.

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4 sentyabrdagi 383-son Qarori bilan tasdiqlangan "Qishloq xo'jaligi mahsu-lotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to'g'risida"gi nizomning 69-bandini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi: *"to'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida mahsulot haqini to'lashdan bosh tortganlik uchun tayyorlov tashkiloti xo'jalikka to'lashdan bosh tortgan summaning 15 foizi miqdoridagi jarimani to'laydi"*.

17. "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to'g'risida"gi nizomning xo'jalikning huquqlarini belgilovchi 27-bandi ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish lozim: *"shartnomada nazarda tutilgan hollarda urug'lik uchun avans mablag'i to'lab berilgandan keyin tayyorlov tashkilotidan mahalliy davlat hokimiyati tomonidan belgilangan nav, sifat va hajmdagi urug' va ekish materiallari bilan muddatida ta'minlashni talab qilish"*.

18.Dissertant: qishloq xo‘jaligida hisob-kitoblar xususida ijtimoiy tarmoqlarda “2024-yil 13-sentyabr kuni Vazirlar Mahkamasi paxta paxta xomashyosi yetishtiruvchilarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorni imzoladi. Hujjat paxta xomashyosini ishlab chiqaruvchilar orasida savollar tug‘dirdi. Iqtisodchi va blogerlar yangi qoidalar fermerlarni zarariga qabul qilinganligini aytmoqdalar”;

Yuqorida qayd etilgan muammoning kelib chiqishining asosiy sabablari bizning fikrimizcha quyidagilardir:

klasterlar va fermer xo‘jaliklari o‘rtasida tuzilgan fyuchers shartnomalari puxta hisob-kitoblarga asoslanmagan holda tuzilganligi hamda shartnoma narxini o‘zgarishi fyuchers shartnomasida aniq belgilanmaganligi natijasida kelib chiqqanligi;

bir tonna paxta xom ashyosini yetishtirishning sarf xarajati puxta hisob-kitoblar asosida biznes rejaga kiritilmaganligi;

bir tonna paxta xom ashyosini yetishtirish uchun ishchilarga qancha ish haqi sarflanishi aniq raqamlarda belgilanmaganligi;

qishloq xo‘jaligi sohasini moliyalashtirishda raqobat muhitini yo‘qligi va faqat davlat tomonidan moliyalashtirilayotganligi;

imtiyozli kreditlar ham tijorat banklari tomonidan “Qishloq xo‘jalik jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan maxsus hisobvaraqda berilayotganligi;

Yuqoridagi muammolar klasterlarning to‘lov qobiliyatining pastligi natijasida fermer xo‘jaliklari oldidagi shartnomada belgilangan majburiyatlarni bajarmaganligi sababli, fermer xo‘jaliklari faoliyati zararlar bilan yakunlanishiga olib kelayotganligida ko‘rish mumkin.

Yuqoridagi muammolarni huquqiy yechimini topish uchun quyidagi qonunlar va qonun osti hujjatlarini xorij tajribalarini puxta o‘rganish va tahlil qilish asosida qabul qilish taklif etiladi:

“Agroklasterlar faoliyatini huquqiy maqomi to‘g‘risida”gi;

“Qishloq xo‘jalik kooperativlari to‘g‘risida”gi;

“Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan qo‘shma korxonalarining huquqiy maqomi to‘g‘risida”gi qonunlarini qabul qilish.

Ushbu qonunlar asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Fermer va dehqon xo‘jaliklari hamda tomorqa xo‘jaliklariga malakali yuridik xizmat ko‘rsatish to‘g‘risida”gi namunaviy Nizomini tasdiqlash fikrimizcha fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD/37/27.02.2020.Yu.107.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ СУДЕЙ ПРИ
ВЫСШЕМ СУДЕЙСКОМ СОВЕТЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ВЫСШАЯ ШКОЛА СУДЕЙ ПРИ ВЫСШЕМ СУДЕЙСКОМ СОВЕТЕ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

УМАРОВ УЛАШ АБДУАЗИЗОВИЧ

**ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКОГО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ
РАСЧЕТОВ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ**

12.00.03 – Гражданское право. Предпринимательское право.
Семейное право. Международное частное право

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора юридических наук (Doctor of Science)

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2024.1.DSc/Yu283.

Диссертационная работа выполнена в Высшей школе судей при Высшем судейском совете Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.sudyalaroliymaktabi.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:

Насриев Илхом Исмоилович
доктор юридических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Imomov Nurillo Fayzullayevich
доктор юридических наук, профессор

Rashidov Kamil Kayumovich
доктор юридических наук, профессор

Toshev Boboqul Norqobilovich
доктор юридических наук, профессор

Ведущая организация:

Академия МВД Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится « 27 » декабря 2024 года в 10:30 на заседании Научного совета PhD/37/27.02.2020.Yu.107.01 по присуждению ученых степеней при Высшей школе судей при Высшем судейском совете Республики Узбекистан. (Адрес: 100097, г.Ташкент, Чиланзарский район, улица Чупонота, 6. Тел.: (99855) 501-01-89; факс: (99855) 501-01-89; e-mail: [sudyalaroliymaktabi @ umail. uz](mailto:sudyalaroliymaktabi@umail.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Высшей школе судей при Высшем судейском совете Республики Узбекистан (зарегистрировано за № 32-24). Адрес: 100097, г.Ташкент, Чиланзарский район, улица Чулпонота, д.6. Тел.: (99855) 501-01-89; факс: (99855) 501-01-89; e-mail: [sudyalaroliymaktabi @ umail. uz](mailto:sudyalaroliymaktabi@umail.uz).

Автореферат диссертации разослан « 15 » декабря 2024 года.

(протокол реестра № 14 от « 15 » декабря 2024 года).

Ф.Х. Отахонов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

М.П. Каландарова

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридическим наук профессор.

К.М. Мехмонов

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире одной из основных проблем развития является обеспечение продовольственной безопасности и приведение уровня качества продуктов питания в соответствие с современными требованиями. С началом третьего тысячелетия кардинально изменились формы осуществления расчетов в сельскохозяйственных отношениях. Например, в сельском хозяйстве США действуют две формы государственной поддержки расчетов – целевая (гарантированная) и залоговая, в то время как в странах Европейского Союза применяется система субсидий на производство и расчеты за сельскохозяйственную продукцию¹. Это свидетельствует о растущей необходимости гармонизации законодательных актов, регулирующих расчеты в международно-правовых отношениях.

В мире проводятся научные исследования, направленные на комплексное изучение с точки зрения гражданского права договорно-правовых механизмов обеспечения расчетов между производителями и заготовителями сельскохозяйственной продукции, проблем применения современных форм расчетов, таких как предварительная оплата, аванс, гарантированный платеж, эскроу и другие, основ и порядка применения безналичных расчетов в сельском хозяйстве, этапов развития электронных платежей в сельском хозяйстве, поиск научно-теоретических и практических решений по совершенствованию особенностей и регулирующего механизма.

В республике последовательно реализуются широкомасштабные программные мероприятия по расчетам в сельском хозяйстве. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы в качестве одной из основных целей обеспечения ускоренного развития национальной экономики и высоких темпов роста определено увеличение доходов дехкан и фермеров не менее чем в 2 раза через научно обоснованное интенсивное развитие сельского хозяйства, доведение ежегодного роста сельского хозяйства как минимум до 5 процентов². Несмотря на проводимые широкомасштабные меры, из-за недостаточно четкого определения необходимых условий в законодательстве о расчетах и договорах на требуемом уровне, приводит к их невыполнению сторонами или правонарушениям, в некоторых случаях вызывает определенные проблемы в процессе применения правовых норм, касающихся расчетов. Кроме того, не дана комплексная оценка ситуациям несоответствия норм гражданского законодательства, регулирующих расчеты, нормам, регулирующим международные расчеты. Это подтверждает необходимость дальнейшего совершенствования правового регулирования расчетов в сельском хозяйстве нашей республики.

Данная диссертационная работа в некоторой степени послужит выполнению приоритетных направлений и задач, определенных в Конституции Республики Узбекистан (2023), Гражданском кодексе

¹ www.worldbank.org/curated/ar/684421468035950081/pdf/476560WP0RUSSI00Box338858B00PUBLIC0.pdf

² Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года № УП-60. <https://lex.uz/docs/5841063>

Республики Узбекистан (1995, 1996), Законах «О договорно-правовой базе деятельности хозяйствующих субъектов» (1998), «О фермерском хозяйстве» (2004), «О гарантиях свободы предпринимательской деятельности» (2012), «О Центральном банке Республики Узбекистан» (2019), «О банках и банковской деятельности» (2019), «О платежах и платежных системах» (2019), Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», «О Стратегии «Узбекистан — 2030»» (2023), Указ Президента Республики Узбекистан от 23 октября 2019 года №УП-2853 «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы», а также Указ Президента Республики Узбекистан от 16 января 2023 года №УП-11 «О дополнительных мерах по дальнейшему расширению доступа к правосудию и повышению эффективности деятельности судов» и в других законодательных актах в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и способов их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информированного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.³ Научные исследования по гражданско-правовому регулированию расчетов в сельском хозяйстве проводятся в ведущих научных центрах и университетах мира, в том числе в Лондонском университете (Великобритания), Ноттингемском университете Трент (Великобритания), Кентском университете (Великобритания), Автономном университете Барселоны (Испания), Бременском университете (Германия), Аллахабадском университете (Индия), Мишкольцском университете (Венгрия), Центре экономических исследований и аспирантуры Карлова университета в Праге (Чехия), Аделаидском университете (Австралия), Страсбургском университете (Франция), Московском государственном университете имени М.В. Ломоносова (Россия), Санкт-Петербургском государственном университете (Россия).

В правовой доктрине зарубежных стран вопросы, связанные с расчетами, освещены в таких научных исследовательских работах, как «The legal aspect of money with special reference to comparative private and public international law» («Правовой аспект денег с особым вниманием к сравнительному частному и публичному международному праву») Ф. Мэннинга, «Money in the law» («Деньги в праве») А. Нуссбаума, «Towards a Payments System Law for Developing and Transition Economies» («К закону о платежной системе для развивающихся экономик и экономик переходного периода») Р. Бхала, «Law

³ Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации осуществлен на основе www.london.ac.uk, www.ntu.ac.uk, www.kent.ac.uk, www.uab.cat, www.uni-bremen.de, www.allduniv.ac.in, www.uni-miskolc.hu, www.cerge-ei.cz, www.adelaide.edu.au, www.unistra.fr, www.msu.ru, www.spbu.ru и других источников.

of bankers commercial credits» («Закон о коммерческих кредитах банкиров») М. Меграха.

В указанных зарубежных научных исследованиях, связанных с совершенствованием правового регулирования расчетов, анализируются монетарная и фискальная политика США, а также протекционистские меры зарубежных стран (или отсутствие таких мер), непосредственное влияние на реализацию сельскохозяйственной продукции, эффективность государственной монетарной и фискальной политики, стоимость полученных фермерами ссуд и другие аспекты. Вышеупомянутые исследования по расчетам показывают, что исходя из объективной необходимости участия сельскохозяйственных субъектов в международных расчетных и кредитных отношениях и учитывая, что вопрос обеспечения является одной из основных проблем при привлечении международного кредита в аграрный сектор для развития частного сектора и интеграции в международный рынок, необходимо совершенствовать правовые основы привлечения международного кредита в сельское хозяйство Узбекистана на основе принципов Международного валютного фонда (МВФ) и правил Всемирного банка.

